

XOJANING “MIFTOH UL-ADL” ASARIDA ADOLATLI PODSHOHLAR TALQINI

Bahodirova Gulzoda

Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Poshshoxojaning “Miftoh ul-adl” asarida adolatning mohiyati, adolatli podshoh siymosi va davlat boshqaruvida adolatning o‘rni sharhlanadi.

Kalit so‘zlar : Poshshoxōja , Navoiy , Jomiy , hukmdor, vazir, qozi, oddiy xalq

Sharq siyosiy tafakkurida adolat—davlatning barqarorligi va jamiyat farovonligining asosiy mezonidir. Xojaning “Miftoh ul-adl” asari ham ana shu g‘oyaning tarixiy-diniy asoslarini ochib beradi. Asarda hukmdorlarning odil bo‘lishi, zulmning oqibatlari va adolatning inson hamda jamiyat hayotidagi o‘rni keng yoritiladi. “Miftoh ul-adl”da hukmdorning adolatli bo‘lishi davlatning eng muhim tayanchi sifatida talqin etiladi. Adolat — podshohning komil inson bo‘lishi, nafsini tiyishi, tenglik tamoyilini ushlashi, fuqarolarga mehribon bo‘lishi va zulmni yo‘qotishi bilan bog‘lanadi.

Navoiy ijodida ham adalat bosh mezon sifatida talqin qilingan. “Hayrat ul-abror”da “Salotin” maqoloti orqali podshohlar odil bo‘lishi, xalq dardiga quloq tutishi kerakligi uqtiriladi. Navoiy aytganidek:

“Shohki ish adl ila buyod etar,
Adl buzg‘un mulkni obod etar.”

Bu fikr Xojaning qarashlari bilan uyg‘un: adolat bo‘lsa — yurt obod, zulm bo‘lsa — vayron bo‘ladi.

Asarda yozma va og‘zaki adabiyotda mashhur bo‘lib ketgan Iskandar, No‘shiravon, Mahmud G‘aznaviy, Bahramshoh, Anushervon, Nuh va boshqalar nomi bilan bog‘liq hikoyalar asosiy o‘rin egallaydi. To‘plamdagi hikoyatlarning har biri biron axloqiy, siyosiy yoki diniy maslahat berishni maqsad qiladi. Masalan, “No‘shiravon, kampir va ozarbayjon hokimi” haqidagi hikoyatda haqiqiy xalqparvar, toj-u taxtga loyiq, adolatli hukmdor qanday bo‘lishi lozimligi ochib berilgan. Unda aytilishicha, No‘shiravon o‘zining beklaridan birini Ozarbayjonga hokim qilib tayinlaydi. U hokim ma‘lum vaqtgacha oqilona siyosat olib boradi, so‘ngra xalqni mol-u mulkini zulm bilan tortib ola boshlaydi. Hatto, yolg‘iz, kambag‘al kampirning birdan-bir kun kechirish manbai bo‘lgan bir parcha yerini ham tortib oladi. Kampir bekning ustidan arz qilib No‘shiravon oldiga boradi. No‘shiravon kampirni tinglagach, uni vaqtincha uy-joy va yegulik bilan ta‘minlab, beklaridan birini Ozarbayjon hokimining qilayotgan ishlarini surishtirishga yuboradi. Tekshirishlar natijasida hokimning avval hech qancha mulki

bo'lmaganligi, lekin hokimlikdan so'ggra xalqdan jabr-zulm o'tkazib tortib olgani evaziga kata boylik toplagani aniqlanadi. Xalqning mol-mulki o'z egalariga qaytarilib, hokim aybiga yarasha jazolanadi. Shundan so'ng, No'shiravon xalq arz-u dodini shohga bemalol yetkazib turishi uchun taxtidan tashqariga uzun zanjir boglatadi va kimning arzi bo'lsa, shu zanjirni tortishii. Bu hikoya Xojaning ta'limotiga mos ravishda, hukmdorning xalq dardiga befarq emasligi lozimligini ko'rsatadi.

Poshshoxoja boshqa hikoyatlarida ham adolat masalasini davom ettiradi. "Sulton Mahmud G'aznaviy, uning oqil vaziri va ikki boyvuchcha" rivoyatida shohning zulmga yo'l qo'ymasligi, har bir ishni tekshirib, haqiqatga qarab hukm qilishi kerakligi tasvirlanadi. Hikoya hukmdorning shoshqaloqlikdan tiyilishi, adolatni chuqur o'ylab amalga oshirishi lozimligini ko'rsatadi.

To'plamdagi yana bir kuchli mazmunga ega hikoyatlardan biri "bir soatlik adolat" haqidagi rivoyatdir. Unda hajga bormoqchi bo'lgan podshohni uning dono vaziri qaytargani, agar u hajga borsa, xalq egasiz qolib, yurtda tartibsizliklar kuchayishi uning o'rniga ko'p haj qilgan zohiddan bir hajning savobini sotib olmoqchi bo'lgani hikoya qilinadi. Zohid podshohga bir soatlik adolatning savobini bersang, nafaqat bitta balki barcha hajlarimning savobini beraman deydi. U bir soatlik adolatning savobi butun odamlarning, farishtalarning va hurlarning ibodatidan ortiq ekanligini bayon qiladi.

"Miftoh ul-adl"da ilgari surilgan adolat konsepsiyasi Sharq siyosiy tafakkurining asosiy g'oyalaridan biridir. Asarda adolat — podshohning asosiy fazilati sifatida talqin qilinadi. Muallifning fikrlari Navoiy, Jomiy, Koshifiy, Sa'diy kabi mutafakkirlarning adolat haqidagi qarashlari bilan boglanadi. Ushbu asar bugungi kun boshqaruv tizimi uchun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Adabiyotlar

1. Xoja. "Miftoh ul-adl".
2. Alisher Navoiy. "Xamsa", "Hayrat ul-abror", "Mahbub ul-qulub".
3. Abdurahmon Jomiy. "Bahoriston".
4. Husayn Voiz Koshifiy. "Futuvvatnomai Sultoniyy".
5. Sa'diy Sheroziy. "Guliston", "Bo'ston".
6. Azizxo'jaev A. O'rta asr Sharq siyosiy tafakkurida adolat konsepsiyasi. Toshkent, 2019.
7. Xudoyberdiyev U. Navoiy ijodida davlat boshqaruvi va adolat g'oyasi. Toshkent: Fan, 2020.
8. "Ilmiy anjumanlar", 2023-yil 2-iyun. Poxshaxoja "Miftoh ul-adl" dostoni talqinlari.